

TA'LIM JARAYONIDA HARAKATLI O'YINLARNING O'RNI

Sherboboev Muxriddin Azimmurod o'g'li

Alfraganus university Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi (PhD),

O'zbekiston, Toshkent

E-mail: msherboboyev@bk.ru

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish .Yoshlar orasida milliy sport turlarini kopro'q o'rgatish va musobaqalar o'tkazish haqida*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, taraqqiyot, jismoniy madaniyat, aqliy faoliyat, harakatli o'yinlar, sport.*

***Ключевые слова:** воспитание, развитие, физическая культура, умственная деятельность, подвижные игры, спорт.*

Ta'lim jarayonida aqliy faoliyat og'irligi sababli jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish ham muhim hisoblanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida jismoniy faoliyat bilan bog'lash muhimdir. Shu kabi faoliyat turlaridan biri harakatli o'yinlar hisoblanadi. Harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda o'yinning g'oyaviylik, ilmiylik, tarbiyaviylik va ta'limiylik jihatlariga hamda o'yindan foydalanish rejaga asoslanganligi va sog'lomlashtirish natijalariga yo'naltirilganligi hisobga olinishi zarur. Harakatli o'yinni tashkil etishda rahbarlik yoki yo'l ko'rsatuvchi roli pedagog, tarbiyachi va yordamchilarga tegishli bo'lib, o'yinni keraklisini tanlash hamda uning turli-tumanligiga e'tibor qaratish kerak. Shunda bolalar o'yinlardan charchab qolmaydi va zerikmaydi. Harakatli o'yinlar yordamida turli-tuman axloqiy va jismoniy sifatlarini tarbiyalash mumkinligi borasidagi ma'lumotlar ilmiy manbalarda ko'p uchraydi.

Jismoniy tarbiya insondagi eng oliy xislat-ruhiy kamolotni tarbiyalagandagina o'z asosiy vazifasini ijro etgan bo'ladi. Insonning sihat-salomatligi tarbiya mahsulidir. Oilada yoshlikdan to'g'ri tarbiya olgan bolalar bog'cha va

maktablarida bundan tarbiyani yanada kengaytiradilar. Sport musobaqalari kuch, aql, iroda tezkorlik to'qnashuvidir. O'sish jarayonining shiddatkor va mukammal bo'lishi, aqliy va jismoniy harakatchanlikning uyg'unligi, iymon-e'tiqodning pokligi shaxsning kamoloti bilan uzviy bog'liq.

Milliy jismoniy tarbiya o'zining ana shu xususiyati bilan bebaho xazinamiz deb atalishga loyiqdir. Jamiyat a'zolari orasida o'zaro munosabatlar mo'tadilligi kichik yoshdan bola hayoti va qalbiga kira boshlagan milliy sport tufayli yoshlar mardlikni, adolatni o'rganadi, ezgu xislat va fazilatlarni rivojlantiradi.

Yoshlar orasida milliy sport turlariga qiziqish yuqori. O'g'il bolalar milliy kurash bilan do'stlashmoqda. Xalqaro musobaqalarda ishtirok etish sportning bu turiga qiziqishni kundan kunga oshirmoqda. Mamlakatimizning tuman, shahar va viloyatlarida milliy sport va milliy o'yinlarga intilish an'anaviy qadriyatlarmizga qiziqishning kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Jismoniy tarbiya insondagi eng oliy xislat-ruhiy kamolotni tarbiyalagandagina o'z asosiy vazifasini ijro etgan bo'ladi. Insonning sihat-salomatligi tarbiya mahsulidir. Oilada yoshlikdan to'g'ri tarbiya olgan bolalar bog'cha va maktablarida bundan tarbiyani yanada kengaytiradilar. Sport musobaqalari kuch, aql, iroda tezkorlik to'qnashuvidir. O'sish jarayonining shiddatkor va mukammal bo'lishi, aqliy va jismoniy harakatchanlikning uyg'unligi, iymon-e'tiqodning pokligi shaxsning kamoloti bilan uzviy bog'liq.

Milliy jismoniy tarbiya o'zining ana shu xususiyati bilan bebaho xazinamiz deb atalishga loyiqdir. Jamiyat a'zolari orasida o'zaro munosabatlar mo'tadilligi kichik yoshdan bola hayoti va qalbiga kira boshlagan milliy sport tufayli yoshlar mardlikni, adolatni o'rganadi, ezgu xislat va fazilatlarni rivojlantiradi.

Yoshlar orasida milliy sport turlariga qiziqish yuqori. O'gil bolalar milliy kurash bilan do'stlashmoqda. Xalqaro musobaqalarda ishtirok etish sportning bu turiga qiziqishni kundan kunga oshirmoqda. Mamlakatimizning tuman, shahar va viloyatlarida milliy sport va milliy o'yinlarga intilish an'anaviy qadriyatlarmizga qiziqishning kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz hududida milliy harakatli o'yinlardan juda qadimdan

foydalanib kelingan. Harakatli o'yinlar birinchi navbatda yoshlarda sportga bo'lgan qiziqishni shakllantirsa, ikkinchi tomondan ularning sog'lom bo'lib rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bolalarga qancha ko'p harakatli o'yinlarni o'rgatilsa va shu harakatli o'yinlarni muntazam o'ynashiga erishilsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Harakatli o'yinlar ayniqsa, maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya darslarida juda katta o'rin egallashi lozim, chunki harakatli o'yinlar salomatlikni saqlash va mustahkamlashda, jismoniy rivojlanishni normal bo'lishiga, harakat malakalarini kompleks takomillashtirishga qulaylik tug'diradi.

Harakatli o'yinlar birinchi navbatda jismoniy faollikni yaxshilash orqali yoshlarning sog'lom bo'lishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan yoshlarga milliy g'urur, mardlik va jasurlik, to'g'ri so'zlik kabi jihatlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Mamlakatimizdagi shu sohada faoliyat olib borgan aksariyat tajribali pedagoglarni ta'kidlashlaricha, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlashda harakatli o'yinlarning ta'limiy ahamiyati juda katta ekan. Bu uzoq yillik pedagogik jarayonda o'z isbotini allaqachon topgan desak xato bo'lmaydi. Harakatli o'yinlar bolani nafaqat jismoniy tomondan, balki uning aqliy va ruhiy tomonidan ham rivojlanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizdagi shu sohada faoliyat olib borgan aksariyat tajribali pedagoglarni ta'kidlashlaricha, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlashda harakatli o'yinlarning ta'limiy ahamiyati juda katta ekan. Bu uzoq yillik pedagogik jarayonda o'z isbotini allaqachon topgan desak xato bo'lmaydi. Harakatli o'yinlar bolani nafaqat jismoniy tomondan, balki uning aqliy va ruhiy tomonidan ham rivojlanishini ta'minlaydi.

Harakatli o'yinda makon (joy) va zamon munosabatlarini to'g'ri baholash qobiliyatini rivojlantiradi hamda o'yinda tez-tez o'zgarib turadigan vaziyatning yuzaga kelishi ta'siriga tez va to'g'ri javob beradi. Harakatli o'yinlarda to'g'ri stereotip harakatni tarbiyalash juda muhimdir, chunki uni keyin to'g'rilash juda qiyin kechadi.

Bundan tashqari katta bo'lmagan buyumlar bilan harakatli o'yinlarni o'tkazish (kichik koptoklar, qopchiqlar, gimnastik tayoqcha, bayroqchalar) teri va mushak-harakat sezgirligini oshiradi, qo'l va barmoq harakat funksiyalarini takomillashtirishga yordam beradi, u ayniqsa kichik maktab yoshidagi va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun juda zarurdir.

Harakatli o'yinlarda o'yin qatnashchilariga alohida rollarni bajarishga to'g'ri keladi (o'yinboshi, ochkolarni hisoblaydigan hakam, hakam yordamchisi, o'yin tashkilotchisi va boshqalar). Bu ularda tashkilotchilik bilan va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda harakatli o'yinlar bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar o'yin qatnashchilarini musobaqani tashkil qilish va o'yin qoidalari bilan tanishtiradi. Bu bilim va malakalar bolalarning mustaqil ravishda musobaqani o'tkazishlariga yordam beradi. Agar pedagog, tarbiyachi, yetakchi bunga kerakli diqqat- e'tiborini qaratadigan bo'lsa, unda o'yinning ta'limiy tomoni yetarli darajada bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.F.Xodjayev., K.Raximqulo., B.Nigmanov. Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2016 y.
- 2.Raximqulov K. Milliy harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma.Toshkent 2013 y.
- 3.Amirovna, Z. A. (2022). Theoretical and Practical Aspects of Environmental Ethics of their Manifestation in Society. 5 b.
4. Mamanov, J. A., & Roziqov, J. M. (2021). Milliy mentalitetning yoshlar madaniyatiga ta'siri. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 170-178.
5. Mamanov, J. A. (2018). Yoshlar ma'naviy madaniyatiga tahdid yoki messioneerlikning salbiy oqibatlari. O'zMU xabarnomasi, 169.
6. Mamanov, J. A. (2018). MA'NAVIY TARBIYA TAKOMILIDA SPORT VA AXLOKIY MADANIYATNI UYFUNLASHTIRISH MASALASI. Fan-Sportga, (3), 74-78.

7. Mamanov, J. A., & Xushvaqto'v, Z. R. (2022). MILLIY MENTALITET (MEXANIZMI) VOSITASIDA YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOIYILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 9-13.

8. Mamanov, J. A. (2020). Young people are increasing a spiritual culture place of national mentality. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 3203.

9. Mamanov, J., & Turg'unov, T. (2022). MILLIY MENTALITET ASOSIDA YOSHLAR MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOIYILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 520-528.

10. Mamanov, J. A. (2023). YOSHLAR MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 383-390.

11. Mamanov, J., & Turg'unov, T. (2023). MAMLAKATIMIZ AHOLISI O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI QAROR TOPTIRISH–BUYUK KELAJAK ASOSI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 311-314.